

TARTIB INTIZOMNI SHAXS RIVOJLANISHIGA IJOBIY TA'SIRI

A.Mirsidikova

Ilmiy raxbari: TAFU, katta o'qituvchisi

SH.A.Nurmatova

TAFU Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi 1-Bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21838080>

Annotatsiya

Farovon mamlakatda, oqil jamiyatni shakllantirish har bir ota-ona hamda pedagogning oliy vazifasidir. Bu yo'lda ta'lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ushbu maqolada katta e'tiborni aynan tarbiyaning asosi bo'lgan tartib intizom haqida. Tartib intizomga ilmiy jihatdan o'rganib chiqamiz. Bundan tashqari har qanday ilmiy fikr o'ziga hos tajriba va eksperimentlar orqali tasdiqlanadi. Quyida B.F.Skinner, Lev Vygotskiy, A.Bandura va boshqalarning shu mavzu yuzasidan qarashlari va o'tkazgan tajribalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yaqin rivojlanish zo'nasi, operent o'rganish, Bobo doll tajribasi.

Kirish Tartib intizom har birimizga yaxshi tanish tushuncha. Shunga qarmasdan tartibni faqat tashqi talab sifatida qaraymiz. Zero asl tartib intizom faqatgina shaxsning shaxsiy sifati bo'lishi mumkin. Faqat boshqalar nazoratidagi tartib bu ko'zbo'yamachilik. Tartib haqida ko'pincha maktab doirasida ko'p to'xtalganmiz. Endilikda ish joyining tartibi bizga bosim yaratadi. Aslida ta'lim muassasalaridagi va ish joyidagi tartib bizga ortiqcha bosim bermasligi uchun oila muhitida bolaga to'g'ri yo'naltirilgan intizom tushunchasi jamiyatning har qanday muammosini bartaraf eta oladi.

Mavzuning dolzarbligi

Tartibli inson uchun har qanday yumush bu o'z imkoniyatlarni ochish nimanidir o'rganish uchun sabab sifatida qabul qilinadi. Agar hayotimizdagi har bir o'zgarishga yangilanish, o'sish uchun imkon deya qabul qila olsak, kelajak bizga tushunarsiz va havotirli to'lqinli oqim bo'lib emas. Aksincha yorqin, qizg'in, umidlarga to'la joy bo'lib oldimizda mavjlanardi.

Asosiy qism

Maria Montessori ichki intizom nazariyasini yaratgan olim. Hozir bu nom zamonaviy jamiyatda yaxshi tanish. Montessori o'zining uzoq yillik kuzatishlarini chuqur tahlil qilib xalqqa tushunri qilib yetkaza olgan. Hattoki u yaratgan bolalarni rivojlantiruvchi pedagogik yondashuvi hozir mamlakatimiz doirasida ham katta e'tirofda. Montessori nazariyasiga ko'ra bola uchun yaratilgan to'g'ri, tartibli, qulay shart sharoit. Ya'ni shu muhitning o'zi muhit ishtirokchisiga dasturi amal bo'lib uni tartibga yo'naltiradi. Bolada qancha erta to'g'ri tashkil etilgan muhitda erkin harakatlanish imkoni berilsa, u shuncha tez o'zini boshqarishni o'rganadi. Kelajakda bu inson tashqi bosim yoki kuzatuvlarsiz ham o'z ichki intizomi orqali hayotini mustaqil va mo'tadil tashkil eta oladi.

Lev Vygotskiy esa "Yaqin rivojlanish zo'nasi" nazariyasi orqali izchil nazorat insonni barcha xatti harakatlarni sifatli bajarishdan zavq ola bilish xususiyatini shakllantiradi. Bunda bolaga o'zi bajara oladiganidan biroz murakkablashgan vazifa beriladi. Bola katta odamning rahbarligida vazifani mehrli madad bilan bajaradi. Bu jarayon davomli bajarilsa bola, izchil nazorat bo'lmasa ham shartni oqilona bajarishga urunadi.

B.F. Skinner esa o'z ta'limotida tarbiya ijobiy rag'batlantirish zamirida rivojlanishini takidlagan. Hozirgi nutqida muammosi bor bolajonlarda ham ABA mashg'ulotlar Skinnerning yondashuvini o'ziga asos sifatida qabul qiladi. Bundan tashqari Skinner tarbiya jarayonida

jazoning ahamiyati haqida ham gapiradi. Unga ko'ra jazo orqali yomon odatdan uzoqlashish mumkin. Ammo faqat jazo yomon odatdan butkul ozod qila olmaydi. Ijobiy mustahkamlash esa haqiqatdan ham inson harakteriga ijobiy hislatlarni qadoqlaydi.

Erik Erikson esa o'z kuzatishlarida oilada mustahkam qoidalar tizim mavjud bo'lsa. Bunday inson tashqi muhitda o'zina dadil, mustaqil, o'z qadrini adekvat baholay oladigan shaxs bo'lib tetishadi. Aksincha oilada tartib va qoidalar aniq ko'rsatilmasa, tez tez o'zgarib tursa, bu hol ikkilanuvchan, o'zini boshqalar oldida qanday tutish kerakligi haqida ko'p o'ylaydigan, nomustahkam psixikali shaxsni yetishtiradi.

Albert Bandura esa o'zining Bobo doll tajribasi orqali mashxur. Bu tajribada bolalar guruhi uchga ajratilgan. 1-guruh: kattalar qo'g'irchoqqa tajovuzkor munosabat ko'rsatgan. 2-guruh: kattalar xotirjam o'ynagan. 3-guruh: nazorat guruhi. Natija kattalarda tajovuzni ko'rgan bolalar guruhi o'yinchoqlarni tajovuzkorona o'ynagan. Bundan tashqari ular o'yin jarayonida kattalarda ko'rmagan qo'shimcha tajovuzli detallar ham qo'sha boshlashgan.

Yuqoridagi olimlar tartib intizomga ilmiy nazar tashlagan. Biroq tarbiya mentalitetimiz, oilaviy qadriyatlarimiz orqali bizga singadi. Har birimiz o'z tartib va intizomimizni shaxsan nazorat qilib o'zimizni to'la nazorat qilishni o'rgansak bizdan haqiqatdan ham oqil jamiyat yaraladi.

Xulosa Bu maqola orqali har bir o'zini hurmat qilgan inson, o'z hayoti uchun masuliyatni, o'z zimmasiga olish orqali kelajakka oltin poydevor qurish imkoni borligini anglatish. Samarali ta'lim kaliti ham aynan tartib orqali kafolatlanadi. Bundan tashqari biz o'z tartibimiz orqali bolalarimiz harakteriga noyob qobiliyatni joylash imkoniyatimiz bor. Shunday ekan kelajakbiz sen tomon umid bilan yo'l oldik.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Montessori, M. (1912). The Montessori Method. New York: Frederick A. Stokes Company.
2. Montessori, M. (1949). The Absorbent Mind. Madras: Theosophical Publishing House.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Skinner, B. F. (1938). The Behavior of Organisms: An Experimental Analysis. New York: Appleton-Century-Crofts.
6. Skinner, B. F. (1953). Science and Human Behavior. New York: Macmillan.
7. O'smirlarda ijtimoiy tolerantlikning psixologik xususiyatlari. (2024). MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 1(8). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14616344>
8. Mirsidikova, A. (2026). O'SMIRLAR IJTIMOY TOLERANTLIGINING KOGNITIV TRANSFORMATSIYASIDA YOSHGA OID VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARNING NAMOYON BO'LISHI. *Социальные науки в современном мире*, 5(15), 4-5